

2025-yil 14-fevral kuni Davlat ishtirokidagi yirik tashkilotlarning ichki audit, moliya-iqtisod, komplayens nazorati va xavflarni boshqarish bo'linmalari xodimlari uchun Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida o'quv-amaliy seminar o'tkazildi. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura va Hisob palatasi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Kombinatimiz vakillari ham qatnashgan bu seminar "Ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yirik korxonalarda xalqaro standartlar asosida o'tkaziladigan audit turlari, "masofaviy audit" axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini samarali boshqarish omillari" mavzusida tashkil etildi.

Hisob palatasi raisining birinchi o'rinbosari Mehridin Abdullayev ushbu idorada amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlarga urg'u berdi. U Hisob palatasi ham o'z faoliyatiga chuqur o'zgartirishlar kiritib, nazorat tadbirlarida faqat xato-kamchiliklarni aniqlash emas, balki tashqi auditga e'tibor qaratgan holda nazorat obyektidagi tizimli muammolarni o'rganish va ularning yechimini topishga intilayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burxanov o'z taqdimotida bugungi kunda Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotga putur yetkazuvchi korruptsiya illatining oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaviy omillarga chek qo'yishga qaratilgan tizimli, maqsadli va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib kelinayotganligiga e'tibor qaratdi.

Tadbirda xorijiy hamkorlar ham ishtirok etdi. Xususan, "Ernst&Young" kompaniyasining O'zbekistondagi biznes konsalting departamenti direktori Asqar Obidov "O'zsvutva'minot" AJning moliyaviy va operatsion samaradorligini oshirish bo'yicha qilingan ishlar yuzasidan taqdimot qildi.

Seminarda, shuningdek, qator muhim tematik yo'nalishlarda taqdimotlar tinglandi. Jumladan, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yirik korxonalarda xalqaro standartlar asosida o'tkaziladigan audit turlari, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun bilan o'rnatilgan talablar va mexanizmlarni samarali joriy etish, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi, kapital qurilish ishlarini amalga oshirish tartiblari, biznes-rejalarni ishlab chiqish masalalari muhokama etildi.

Masofaviy auditni zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida keng ko'lamda qo'llash, Hisob palatasining "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi hamda vazirlik va idoralarning ushbu dasturga integratsiyasi samaradorligiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi kabilarning mutasaddi vakillari ham seminarda ma'ruza qildilar.

O'quv-amaliy seminarda "O'zmetkombinat" AJning Kuzatuv Kengashi huzuridagi Komplayens xizmati boshlig'i To'liqin Xojiyev, Komplayens xizmati menejeri Abror Abdullayev, Ichki auditor bo'limi auditori Umid Abduqodirov, Bosh buxgalter o'rinbosari Xayrullo Sultonov ham ishtirok etdilar.

***Umid Abduqodirov, "O'zmetkombinat" AJning
Ichki Audit xizmati auditori.***